

INTELLEKTUAL MULK VA KAPITAL TUSHUNCHASI

Jizzax politexnika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası asistenti
Majidov Firdavs Ilxom o'g'li

Annotatsiya: Maqolada intellektual mulk va kapital tushunchalariga alohida e'tibor bergan holda yondashilganligini hamda ushbu tushunchalarning o'rni va ahamiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Intellektual mulk, intellektual huquq, intellektual faoliyat.

THE CONCEPT OF INTELLECTUAL PROPERTY AND CAPITAL

Jizzakh Polytechnic Institute
Assistant of the Department of Social Sciences
Majidov Firdavs Ilkhom ugli

Abstract: The article discusses the approach with special attention to the concepts of intellectual property and capital, as well as the place and significance of these concepts.

Keywords: Intellectual property, intellectual law, intellectual activity.

Intellektual faoliyat natijalarining yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarda ifoda etuvchi qiymatga transformatsiyalanishi asosida innovatsion iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyotining taraqqiyoti jadallashadi va uning ko'lamlari tobora kengayib boradi. Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda intellektual resurslar ahamiyatining ortib borishi mahsulot ishlab chiqarish usullarining o'zgarishiga, bilimlarning yangi qiymat yaratilishida eng muhim omilga aylanishiga olib keladi.

Innovatsion biznes muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri intellektual faoliyat natijalariga egalik qilish hisoblanadi, shu sababli ham, zamonaviy kompaniyalarning raqobatbardoshligi va serdaromadlilik darajasi ko'p jihatdan, intellektual mulk sifatidagi resurslarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligiga binoan, intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan, ayni paytda huquqiy himoya ta'min etiluvchi tovarlar, xizmatlar, shaxsiylashtirish vositalari kabilar intellektual mulk sifatida tushuniladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 97-moddasida intellektual faoliyat natijalariga quyidagicha ta'rif berilgan: Ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda intellektual faoliyatning aniq ifoda etilgan natijalari hamda yuridik shaxsning bu natijalarga tenglashtirilgan o'ziga xos vositalari, ana shu ishlar yoki xizmatlarni ado etayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mahsulotlari (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va hokazo)ga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e'tirof etiladi.

Mutlaq huquq ob'yekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina foydalanishlari mumkin. Boshqacha aytganda, intellektual mulk – tegishli huquqiy mexanizmlar bilan himoyalangan intellektual aktivlar hisoblanadi. Intellektual mulk muhofazasining mustahkam tizimiga ega bo'lishi lozim.

Intellektual mulk muhofazasi ixtirochilar va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning yangiliklaridan foydalanish uchun sohaga investitsiyalarni jalb qilishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1031-moddasiga ko'ra, intellektual mulk obyektlari uch guruhga bo'linadi:

1. Intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot va san'at asarlari;

- ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashqilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
- ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

2. Fuqarolik muoamalasi ishtirokchilarining tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

- firma nomlari;
- tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);
- tovarlar chiqarilgan joy nomi.

3. Intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muoamalasi ishtirokchilarining tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Bugungi kunda butun dunyoda intellektual mulk obyektlarini tarkiblarga ajratish, obyektlarga huquqiy rejim berish, huquq egalari manfaatlarini himoya qilish tizimini soddalashtirish orqali kodifikatsiya jarayoni olib borilayotgani ko'zga tashlanmoqda.

Bizning intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazalash sohasida amaldagi qonunchiligimiz bevosita mulkka egalik va ilmiy-texnikijodiyot erkinligi huquqlari ifoda etgan Konstitutsiyaning IX bo'limi 36 va 42 moddalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Intellektual mulk obyektlarini yaratish, muhofazalash va foydalanish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqi sohasi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda, huquqiy muhofaza qilinuvchi intellektual mulk obyektlariga quyidagilar kiritilgan:

1), ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari;

- 2) elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar;
- 3) ma'lumotlar bazalari;
- 4) ijro;
- 5) fonogramma;
- 6) efir orqali xabarlar yuborish yoki kabel orqali radio eshittirish va teleko'rsatuvlar uzatish;
- 7) ixtirolar;
- 8) foydali modellar;
- 9) sanoat namunalari;
- 10) seleksiya yutuqlari,
- 11) integral mikrosxemalar,
- 12) tijorat sirlari (nou-xau);
- 13) firma nomlari,
- 14) tovar va xizmat ko'rsatish belgilari,
- 15) tovarlarning kelib chiqishi bo'yicha joy nomlari;
- 16) tijorat-savdo belgilari.

Intellectual mulk obyektlarining bu yopiq ro'yxati intellektual faoliyatning barcha natijalari muhofaza qilinishini anglatmaydi, o'z navbatida barcha bilimlarni ikki katta guruhga bo'lishimiz mumkin bo'ladi: 1) amaldagi huquqiy mexanizmlar orqali muhofaza qilish imkoni mavjud bo'lmagan bilimlar (g'oyalar, nazariyalar, kashfiyotlar);

- 2) muhofazalanadigan bilimlar.

Muhofazalanadigan bilimlar o'z navbatida qandaydir sabablar bilan muhofazalanmasdan qolgan va huquqiy jihatdan himoyalangan intellektual mulkka bo'linadi. Amaldagi qonunchilik intellektual faoliyat natijalarini himoyalash borasida turli intellektual mulk obyektlarini tasarruf etish, foydalanish va ularga egalik qilish tartibini belgilab beruvchi turli huquqlar (mualliflik huquqi, patent huquqi va hokazo) larni ko'zda tutadi.

Mualliflik huquqi quyidagi biron-bir obyektiv shaklda bo'lgan oshkor

qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi:

- yozma (qo'lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo);
- og'zaki (omma oldida so'zlash, omma oldida ijro etish va hokazo);
- ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo);
- tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino, tele, video yoki fotokadr va hokazo);
- hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va hokazo);
- boshqa shakllardagi.

Mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi.

Xulosa qib aytganda, intellektual mulkni huquqiy muhofazalash tizimi ilmiy-texnik va ijodiy faoliyat erkinligini ta'minlaydi, iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi hamda innovatsion jamiyat barpo etishning muhim huquqiy asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent, —O'zbekiston NMIU, 2023 -yil.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

3. O'zbekiston Respublikasining —Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonuni. 2006-yil

4.O'zbekiston Respublikasining —Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi Qonuni. —T.: 2001, 89 b.

5.O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi Qonuni. —T.: 2002, 117 b.

6. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-312-son 2011-yil 26- dekabrda qabul qilingan - Intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni. —T.: 2011, 94 b.